

OILADA GENDER TENGLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-542-545>

Asamova Dilnoza Fazlitdinovna

Nizomiy nomidagi

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

mustaqil izlanuvchisi

asomovadilnoza16@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Gender tenglik madaniyatini oilada shakllantirish masalasi bugungi jamiyat taraqqiyotining eng dolzarb mavzularidan biri ekanligi tahlil qilinadi. Oilaga gender tenglikka erishishning asosiy omili sifatida qaralib, gender stereotiplarini bartaraf etish, oilada tenglik madaniyati ota va ona o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch va hamkorlik orqali takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shu orqali jamiyatning barqaror rivojlanishga erishishi uchun oilaning o'rni va ahamiyati yoritib beriladi. Oila – bu insonning birinchi ijtimoiy maktabi bo'lib, unda farzandlar jamiyatdagi rollarni, mas'uliyatni va munosabat madaniyatini o'rganadi. Shuning uchun ham oilada gender tenglik madaniyatini qaror toptirish nafaqat shaxs, balki butun jamiyatning kelajagini belgilovchi muhim omil ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Gender tenglik madaniyatini oilada shakllantirish, gender stereotiplari, gender adolati, ijtimoiy rivojlanish, barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM), gender tenglik, qizlar ta'limi, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda oilaning o'rni.

Аннотация: В данной статье анализируется вопрос формирования культуры гендерного равенства в семье как один из наиболее актуальных вопросов развития современного общества. Семья рассматривается как ключевой фактор достижения гендерного равенства, рассматриваются вопросы искоренения гендерных стереотипов и улучшения культуры равенства в семье посредством взаимного уважения, доверия и сотрудничества между отцом и матерью. Это подчеркивает роль и важность семьи для достижения устойчивого развития общества. Семья является первой социальной школой человека, где дети учатся ролям, обязанностям и культуре взаимоотношений в обществе. Поэтому подчеркивается, что формирование культуры гендерного равенства в семье является важным фактором, определяющим будущее не только отдельного человека, но и всего общества.

Abstract: This article analyzes the issue of forming a culture of gender equality in the family as one of the most pressing issues in the development of today's society. The family is considered as a key factor in achieving gender equality, and the issues of eliminating gender stereotypes and improving the culture of equality in the family through mutual respect, trust and cooperation between father and mother are considered. This highlights the role and importance of the family for achieving sustainable development of society. The family is the first social school of a person, where children learn roles, responsibilities and the culture of relationships in society. Therefore, it is emphasized that establishing a culture of gender equality in the family is an important factor determining the future not only of the individual, but also of the entire society.

KIRISH

Yangilanayotgan O'zbekistonda oilaning jamiyat siyosiy hayotidagi ishtiroki muhim rol o'ynaydi. Jamiyatda og'il-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga

chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish borasida mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilgan. Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalarining tez sur‘atlarda rivojlanishi va ijtimoiy o‘zgarishlar davrida gender tenglik madaniyatini shakllantirish masalasi har bir davlatning ijtimoiy siyosatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, inson huquqlarini ta‘minlash va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda gender tengligi muhim omil sifatida qaraladi. Chunki erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik faqat huquqiy normalar bilan emas, balki madaniy, ma‘naviy va ijtimoiy ong darajasida ham shakllanishi zarur. Oila esa bu jarayonning eng muhim va tabiiy bosqichi hisoblanadi. Aynan oilada farzandlar dastlab tenglik, o‘zaro hurmat, mas‘uliyat va adolat kabi ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtiradilar. Agar oilada ota va ona bir-biriga teng munosabatda bo‘lsa, farzandlar ham kelajakda jamiyatda bunday qadriyatlarni himoya qiluvchi shaxslar sifatida voyaga etadi. Shu boisdan, gender tenglik madaniyatini shakllantirish, avvalo, oilaviy muhitda boshlanishi lozim. Gender tenglik madaniyati – bu erkak va ayolning huquq va imkoniyatlari tengligini anglash, ularning jamiyatdagi o‘rni, mas‘uliyati va hissasini qadrlash, shuningdek, ushbu qadriyatlarni kundalik hayotda amalda qo‘llash madaniyatidir. Bunday madaniyat shaxsda o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik, hamkorlik va insoniylik kabi xislatlarning mustahkamlanishiga zamin yaratadi. O‘zbekiston Respublikasida gender tenglik masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, shuningdek, erkaklar bilan teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Gender tenglikni ta‘minlash strategiyasi”, “Oila konsepsiyasi” kabi muhim hujjatlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlar jamiyatda gender madaniyatini rivojlantirish, oila institutini mustahkamlash va inson kapitalini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Asosiy qism: Gender tenglik madaniyatini oilada shakllantirish masalasi bugungi jamiyat taraqqiyotining eng dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Oila – bu insonning birinchi ijtimoiy maktabi bo‘lib, unda farzandlar jamiyatdagi rollarni, mas‘uliyatni va munosabat madaniyatini o‘rganadi. Shuning uchun ham oilada gender tenglik madaniyatini qaror toptirish nafaqat shaxs, balki butun jamiyatning kelajagini belgilovchi muhim omildir. Avvalo, oilada tenglik madaniyati ota va ona o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, ishonch va hamkorlik orqali shakllanadi. Agar oilada erkak ham, ayol ham qarorlar qabul qilishda teng ishtirok etsa, farzandlar bunday muhitda tenglikni tabiiy hol sifatida qabul qiladi. Aksincha, erkak hukmron, ayol esa faqat uy yumushlariga mas‘ul bo‘lgan oilalarda gender stereotiplari shakllanib, keyingi avlod ongida ayollarning ijtimoiy faolligiga to‘siq paydo bo‘ladi. Shu bois, ota-onalarning farzand tarbiyasida bir xil mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishi, oilaviy majburiyatlarni teng taqsimlashi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda gender tenglikni ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar

kafolatlari to‘g‘risida’gi Qonun ushbu sohadagi asosiy huquqiy hujjat bo‘lib, unda har bir shaxsning jinsi, ijtimoiy mavqei yoki oilaviy ahvolidan qat’i nazar teng huquqlarga ega ekani belgilangan. Bu qonun oilalarda gender tenglik madaniyatini shakllantirish uchun muhim huquqiy zamin yaratdi. Shuningdek, “Gendertenglikni ta’minlash strategiyasi” doirasida ta’lim, sog‘liqni saqlash va mehnat bozorida ayollar huquqlarini kengaytirish, erkaklarning ham oilaviy mas’uliyatda faol ishtiroketishini rag‘batlantirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Gender tenglikni oilada shakllantirishning yana bir muhim jihati – bu ta’lim va tarbiya tizimida tenglikg‘oyalarini singdirishdir. Ota-onalar farzandlar orasida jinsiy tafovut asosida ajratish holatlaridan saqlanishi, qiz va o‘g‘il bolalarga teng imkoniyat yaratishi zarur. Masalan, qizbolaga faqat uy ishlari, o‘g‘il bolaga esa tashqi faoliyat yuklatish amaliyoti asta-sekin yo‘qolishi kerak. Har ikki jins vakili ham o‘z qobiliyatini erkin namoyon etish, orzu vamaqsadlariga erishish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida gender tenglik g‘oyalarini targ‘ib etish, ijtimoiy tarmoqlarda oila va jamiyatda ayolning o‘rni, erkakning mas’uliyati, o‘zaro hurmat va hamkorlik haqida ijobiy kontent yaratish ham muhim. Chunki bugungi yoshlar ko‘proq axborotni internet orqali oladi va bu ularning dunyoqarashiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, oilada gender madaniyatini shakllantirish jarayonida axborot maydonining ham tarbiyaviy ta’siri kuchli bo‘lishi kerak. Mazkur mavzuda olib borilgan tadqiqotning metodologik asosi gender tenglik madaniyatini oilada shakllantirish jarayonining ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ilmiy izlanishlar tizimli tahlil, taqqoslash, sotsiologik kuzatuv, statistik ma’lumotlarni o‘rganish hamda kontent tahlil usullariga tayangan holda amalga oshirildi. Birinchidan, nazariy tahlil usuli orqali gender tenglik madaniyati va oilaviy tarbiya masalalariga oid milliy hamda xorijiy adabiyotlar o‘rganildi. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, ilmiy maqolalar, BMT va YuNESKO tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro me’yoriy hujjatlar tahlil qilinib, ularning gender madaniyatini rivojlantirishdagi o‘rni aniqlab chiqildi. Ikkinchidan, empirik tadqiqot usullari asosida oilalarda gender tenglik madaniyatidarojasini aniqlashga qaratilgan so‘rovnomalar, suhbatlar va kuzatuvlar o‘tkazildi. Tadqiqotda turli yoshdagi, turmushdagi va farzandli oilalar ishtirok etib, ularning o‘zaro munosabatlaridagi tenglik, mas’uliyat va ro‘l taqsimoti bo‘yicha ma’lumotlar yig‘ildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ko‘pchilik oilalarda gender tenglik tamoyillari qisman amalga oshayotgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda an’anaviy stereotiplar saqlanib qolmoqda. Uchinchidan, taqqoslama tahlil usuli orqali O‘zbekistondagi gender tenglik siyosati va boshqa davlatlar – xususan, Skandinaviya mamlakatlari, Turkiya va Qozog‘istonda tajribalari solishtirildi. Ushbu tajribalar asosida oilada tenglikni targ‘ib qilishning samaralishakllari, davlat va jamoatchilik hamkorligining afzalliklari aniqlab olindi. Sotsiologik yondashuv yordamida oilaning ijtimoiy institut sifatidagi o‘rni, uning gender madaniyatini shakllantirishdagi psixologik va ijtimoiy ta’sir o‘rganildi. Bu yondashuv oilaviy muhitda shaxsning genderga oid qarashlari qanday shakllanishini, qaysi omillar

(ta'lim, madaniyat, diniy an'analar, iqtisodiy holat vaboshqalar) bunga ta'sir etishini aniqlash imkonini berdi.

XULOSA

Gender tenglik madaniyatini oilada shakllantirish jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiybarqarorlikning muhim omilidir. Oila insonda tenglik, hurmat va adolat qadriyatlarinisingdiradigan birlamchi muhit bo'lib, unda ota-onaning o'zaro teng munosabati farzandongiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda bu yo'nalishda qonuniy asoslar yaratilganbo'lsa-da, amaliyotda ularni mustahkamlash uchun ta'lim, targ'ibot va ijtimoiy ongning o'zgartirish ishlarini yanada kuchaytirish zarur. Gender tenglik madaniyatiga ega oila – busog'lom, adolatli va uyg'un jamiyatning poydevoridir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Gender tenglikni ta'minlash strategiyasi to'g'risida”gi qarori. – Toshkent, 2020.
4. United Nations Development Programme (UNDP). Gender Equality and Women Empowerment Report. – New York, 2022.